



KOMPYUTER O'YINLARI VA GADJETLARNING BOLALAR RUHIYATIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI

YULCHIYEVA SHAXNOZA

NAMANGAN VILOYATI CHUST TUMANIDAGI

MIRZAAZIZOV NOMIDAGI 1- SONLI

MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGI

Annotatsiya: Muallif ushbu maqola orqali bola nega yolg'on gapiradi? Nega boshqalardan o'zini olib qochadi? Kabi savollarga javob olishingizda yordam beradi. Bolaning ruhiyatida kompyuter o'yinlarining salbiy oqibatlari xaqida aytib o'tgan.

Kalit so'zlar: Psixodiagnostika, Psixoproflaktika, korreksion psixologiya.

Dastlab bolaga zo'ravonlik namoyon etishning sababi ota-onalarni0g psixologik og'ishi deb hisoblandi, keyin diqqat ijtimoiy kontekstga ko'chirildi, bundan xatar omili ota-onaning bolaga zo'ravonlik munosabatini shartlovchi qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy yakkalanishda yashirin ekanligi haqidagi xulosa kelib chiqadi. Yolg'onning ildizida qo'rquv yotadi. Bolaning yolg'on gapirishida otaona muhim sababchilardan ya'ni bola tarbiyasida haddan ziyot qattiqqo'ligidir. Bola o'smirlik yoshida ham ko'p yolg'on gapirishi mumkinligi. Buning sabablaridan biri otaonaning haddan ortiq bolaga taqiq qo'yishlarning ortidan kelib chiqishi. Bolalarda gadjetlarni ishlatish tartibi, bola nega yolg'on gapiradi, ota-onalarning tarbiyada yo'l qo'yadigan xatolari, boladan biror narsani qilish yoki qilmasligini talab qilish, hozirgi zamon yoshlari, bolalarni boshqalar bilan taqqoslashning oqibatlari haqida firk mulohaza yuritiladi. Kalit so'zlar: gadjet, inqiroz, xatolar, bolalardagi injiqlik, yolg'onchilik, qo'rquv, kriziz, bolada uyat hissi, uyg'onish, aybdorligini sezdirish va qo'rqitish. 2019-yilda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, gadjetlardan



foydalanadigan bolalar o'z tengdoshlaridan 2-3 yosh orqada qolar ekan. 9-10 yoshli bolalar bir kunda 3 soatdan ko'p gadjetlardan foydalanishi bolalarda qandli diabet, semirish kabi kasalliklarni keltirib chiqar ekan. 15-16 yoshli o'smirlarda esa suyakning murtlashishiga olib kelishi aniqlangan. Kuniga 7 soatdan oshiq gadjetlardan foydalanish esa bolalarda tushkunliklarni holatlari kuzatilgan. Bularni eshitgan ota-onalar bolalarni butunlay gadjetlardan cheklashi ham to'g'ri bo'lmaydi, chunki bugun gadjetlar zamon talabidir. Bolalarni butunlay mahrum qilishning o'rniga undan unumli va to'g'ri foydalanishni o'rgatish to'g'ri ish bo'ladi. Bolalarni gadjetlarga o'rganib qolishni oldini olishda ota-ona muhim o'rnakdir, ya'ni bola eshitganini emas balki ko'rganini qiladi. Ota-onalar o'zlari instagramm, telegramm va boshqa shunga o'xshagan narsalar bilan band bo'lar ekan, bolani gadjetlardan butunlay cheklashning foydasi yo'q. Ota-onalar bolalar bilan ruhan yaqinlashish kerak. Ota-ona bolaga jismonan yaqin bo'lib, lekin hayoli telefonda yoki boshqa narsalarda bo'lsa, bola ularni yo'qday his qiladi. Buning natijasida bola ota-onasini etiborini tortish uchun yolg'ondan foydalana boshlaydi. Yolg'onning ildizida qo'rquv yotadi. Bolaning qo'rquvining muhim sabablaridan biri ota-onaning bolaga nisbatan qattiqqo'l bo'lishidir. Ota-onalarning bolalarga nisbatan ko'p taqiq qo'yishi va bolani tinglamaslik shuningdek uni qiynayotgan masalalar haqida qiziqmas ekan bolada yolg'on gapirishga moyilik ortib boraveradi. Bog'cha yoshi haqida gapiradigan bo'lsak, bolalarda 3 yosh krizisi bor. Bu yoshda bola o'z xohishlarini ota-onasining xohishlaridan farq qilinishini tushunib yetadi va bola o'z xohishlarini ifodalay boshlaydi. Bu paytda bola o'zi istab turgan narsasini taklif qilsangiz, rad etishi mumkin. Bu davr 2,5 yoshdan 4,5 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bola bu krizis davridan o'tib ketish uchun ota-onadan ozroq yordam kerak bo'ladi. Ota-ona bunga ozroq ayyorlik bilan yondashib uni xohish-istaklarini inobatga olish kerak va bolangiz o'ynar ekan unga qo'shilib sakrang, o'ynang bo'lmasa bolaga imkon yaratib bering. Bola bu yoshda juda harakatchan bo'ladi. Iloji boricha ko'proq bola bilan birga vaqt o'tkazish bola uchun ham, ota-ona uchun ham foydalidir. Bolalarning xohishlarini inobatga olar ekanmiz ammo doim ham bunday bo'lmasligi haqida ham ota-ona ayyorlik bilan tushuntira bilish kerak. Masalan bola dori ichish kerak bo'lsa lekin bola injiqlansa, unga dori ichadan degan buyruq emas, balki



bunga ayyorlik bilan yondashib qaysi qoshiqchada ichishini so'rash kerak. Demak, bu bilan biz bog'cha yoshidagi bolalarning injiqliklarini ularga tanlash huquqini berish bilan bartaraf etish mumkin. Hozirgi zamon yoshlari haqida gapirar ekanmiz, biz ularni zamonaviy narsalardan cheklash emas balki aqlga sig'adigan darajada ruhsat berishimiz kerak. Masalan, yuqorida aytib o'tganimizday bolani telefon ishlatishdan butkul mahrum qilmasdan, unga bazi cheklovlar qo'yishning o'zi yetarli. Shu bilan ota-ona bola bilan birga zamon bilan hamnafas bo'lish maqsadga muvofiq. Masalan farzandingiz Tik Tokni kuzatib borayapti, siz bu bilan tanishib, uning qanday zararli va foydali tomonlari borligi haqida farzandingiz bilan muhokama qilishingiz maqsadga muvofiqdir. Bazida bola xato qilib, shu qilgan xatolaridan xulosa chiqaradi va ushbu xatoni qayta qilmaslikga harakat qiladi. Shuningdek ota-ona bolaga vaqt ajratmasdan doim hayoti ishdan iborat bo'lib oilaga vaqt ajratmas ekan, unda ota-onaning o'zida muammo bor. Haddan tashqari ko'p ishlash va doim pul topish xavotirida yurishning o'zi bir psixologik muammodir. Bolani urib jazolash haqida gapirar ekanmiz, bu holat 1940-yilgacha oddiy holat bo'lgan. Ammo undan keyin bu holat bo'yicha ko'plab tekshiruv va o'rganish ishlari olib borilgan. Natija shuni ko'rsatdiki, bolaning ko'p kaltaklanishi bolada yuqori agressivlik, otaona bilan munosabatning yomonlashishi, psixologik salomatlikning yomonlashishi, qurbon roliga tushib qolish va o'ziga nisbatan ishonchsizlik tuyg'ulari vujudga keladi. Shuningdek ota-onalar bolalarini o'zaro taqqoslashi, bu holat aka-uka va opa-singil o'rtasida janjallarni kelib chiqishiga zamin yaratadi. Farzandlar o'rtasida adolat qilishlik bunday vaziyatlarni oldini oladi. Iqtidorli o'quvchilarni izlash, aniqlash va tarbiyalashning asosiy maqsadi respublikaning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi intellektual salohiyati bor yoshlarni tayyorlash, yordam berish, iste'dod sohiblariga bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish hamda ulardagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratishdan iboratdir. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim muassasalarida o'quvchilar shaxsining rivojlanishi, ularning qiziqishlari, iqtidorlarini ro'yobga chiqishi, mustaqil bilim olishlariga va ijodiy mehnat qilishlariga shart-sharoit yaratish lozim. Shuning uchun ham davlat iste'dodli yoshlarni alohida qo'llab-quvvatlaydi. Ta'lim muassasalarining iqtidorli



o'quvchilari maxsus psixologik va pedagogik test o'tkazish orqali aniqlanadi. Bunday o'quvchilarni maqsadli hayotga yo'llashda ta'lim muassaslarining vazifalari quyidagilardan iboratdir:

Iqtidorli o'quvchilarning intellektual salohiyati, chuqur bilim olishi va qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish;

Malakali o'qituvchilarni iqtidorli o'quvchilar bilan individual (yakka tartibda) ishlashga safarbar qilish; ilm-fan taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy jamiyat ishlariga iqtidorli o'quvchilarni keng jalb etish;

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda maktabda iqtidorli o'quvchilar haqidagi ma'lumotlar banki va ularni doimiy tashxislash monitoringini shakllantirish; ular bilan ishlashning ilg'or pedagogik texnologiyalarini aniqlash;

Oliy ta'lim muassasalari, o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan yetuk mutaxassislar bilan hamkorlik qilish Ota-onalar farzandlariga qattiq ta'sir qiluvchi gaplarni aytishdan uchta maqsad ko'zlanadi. Bular bolada uyat hissini uyg'otish, aybdorligini sezdirish va qo'rqitish. Bu bolada o'ziga nisbatan ishonchni yo'qolishiga va oilaviy rishtalarni buzilishiga olib keladi. Biz bu bilan shuni anglab yetishimiz keraki doim farzandlarimiz bilan birga bo'lib, ularning istak-xohishlari haqida ham o'ylashimiz kerak. Farzandingiz hayot yo'lini tanlashida siz uni qo'llab-quvvatlab turishingizning o'zi ular uchun bir baxtdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oziev. E. "Ontogeniz psixologiyasi o'quv qo'llanmasi" Toshkent NIF MSH 2020.
2. G'oziev.E. "Pedagogik psixologiya asoslari" T "O'qituvch" 2010y.
3. Davaetshin.M.G. To'ychieva S.M. "Umumiy psixologiya", Toshkent 2002
4. Davaetshin.M. "Psixologiyadan asosiy tushunchalar" T